

Texnologik mashina va jixozlar (mebel va yog'ochsozlik sanoati)



Ta'lim shakli, ta'lim davri:

240 kredit to'planadi, kunduzgi ta'lim shakli, 4 yil o'qiladi

Ta'lim klasifikatori:

Muhandis-mexanik

Ilmiy izlanish qamrovi:

Mebel va yog'ochsozlik sanoati

Fakultet:

Yoqilg'i va organik birikmalar kimyoviy texnologiyasi

Yo'nalish kodi:

60720700

Kafedra mudiri:

Xusenov Arslonnazar Shernazarovich, email: sytk@tkti.uz

O'quv dasturining maqsad(lar)i:

Mehnat bozori talablariga javob beradigan, oliy ma'lumotli, yuqori professional malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan kimyogar-texnolog mutaxassislarni (bakalavr va magistr) tayyorlash hisoblanadi.

Professional faoliyatga kirish:

bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va texnika sohasidagi yo'nalish bo'lib, mebel va yog'ochsozlik texnologiyasi, organik moddalar, polimerlar kimyoviy texnologiyasi bo'yicha fan va ishlab chiqarish, qayta ishlash, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, korxonalar va tashkilotlar, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Texnologik mashina va jixozlar (mebel va yog'ochsozlik sanoati)



1-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	DIN1104	Dinshunoslik	4
	UNK1108	Umumiy va noorganik kimyo	4
	XT1108	Xorijiy til	4
	FIZ1108	Fizika	4
	OM1108	Oliy matematika	4
	MKG1106	Muhandislik va kompyuter grafikasi	6
	MKM2304	Materialshunoslik va konstruktsion materiallar texnologiyasi	4

3-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	MS2404	Metrologiya va standartlashtirish	4
	MD2404	Mashina detallari	6
	NM2306	Nazariy mexanika	6
	EEA2306	Elektrotexnika va elektronika asoslari	6
	MQ2304	Materiallar qarshiligi	4
	YBT2309	Yog'och buyumlari texnologiyasi	

2-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	4
	UNK1108	Umumiy va noorganik kimyo	4
	XT1108	Xorijiy til	4
	FIZ1108	Fizika	4
	OM1108	Oliy matematika	4
	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	4
	TTAT1106	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	6

4-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	MMN2404	Mashina va mexanizmlar nazariyasi	4
	KTM2404	Ko'tarish-tashish mashinalari	4
	YQT4704	Yog'och kimyosi	6
	YTI2406	Yog'och turlarini identifikatsiyalash	5
	YSJ3601	Yog'och buyumlari texnologiyasi (kurs ishi)	1

Texnologik mashina va jixozlar (mebel va yog'ochsozlik sanoati)



5-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	FAL3504	Falsafa	4
	YSJ3510	Yog'och kompozitsion materiallari texnologiyasi	4
	SM3504	Soha materialshunosligi	4
	Tanlov fanlar		
	YKA3504/	Yog'och kesish asoslari/	4
	YOG'O3504	Yog'ochshunoslik	4
	MDBT3504/	Mebel va duradgorlik buyumlari texnologiyasi/	4
	YIBJ3504	Yog'ochga ishlov berish jarayonlarini modellashtirish	4
	TMJ3504/	Texnologik mashina va jixozlar/	4
	GIDR3504	Gidravlika	4
	YK3504/	Yog'ochga kimyoviy ishlov berish/	4
	YChQ3504	Yog'och chiqindilarini qayta ishlash	2
	YO'RK3502	Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	2

7-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SIM4704	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	4
	SKLA4705	Soha korxonalarini loyihalash asoslari	5
	SKLA4701	Soha korxonalarini loyihalash asoslari (kurs loyihasi)	1
	IChJM4706	Ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va avtomatlashtirish	6
	Tanlov fanlar		
	YMT4706/	Yelimlangan materiallar texnologiyasi/	6
	YIBR4706	Yog'ochga ishlov beruvchi raqamli-dasturli boshqarish jixozlari	4
	YPT4704/	Yog'ochni pardozlash texnologiyasi/	4
	HDQT4704	Himoya-dekarativ qoplamalar texnologiyasi	4
	YQT4704/	Yog'ochni quritish texnologiyalari/	4
	YKQ4704	Yog'ochni kamerali quritish	

6-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	EKA3504	Ekologiya	4
	YSJ3510	Yog'och kompozitsion materiallari texnologiyasi	6
	YSJ3601	Yog'och kompozitsion materiallari texnologiyasi (kurs ishi)	1
	KSMJ3606	Yog'och tilish texnologiyasi	6
	Tanlov fanlar		
	MUHP3602/	Muhandislik psixologiyasi/	2
	UP3602	Umumiy pedagogika	5
	FM3605/	Fuqaro muhofazasi/	5
	KHO'T3605	Korxonalar hujjatlarini o'zbek tilida yuritish	

8-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	XFX4704	Hayot faoliyati havfsizligi	4
	YBK4806	Yog'och buyumlari konstruksiyasi	6
	Tanlov fanlar		
	YM4806/	Yog'ochni modifikatsiyalash/	6
	YSJ4806	Yog'ochsozlik sanoati jixozlari	4
	MD4804/	Mebel dizayni/	4
	YKQ4804	Yog'ochni tabiy sharoitda quritish	

Texnologik mashina va jixozlar (mebel va yog'ochsozlik sanoati)



O'rganish natijalari:

Bilim va tushunchalar

- A1** Mebel va yog'ochsozlik sanoati (yog'ochli kompozitsion materiallar texnologiyasi, yog'och buyumlari hamda mebel konstruksiyalari) sohasiga oid nazariy, amaliy, ilmiy matematika, fizika, chizma geometriyasi va axborot texnologiyalari tamoyillarini tushuntira oladi;
- A2** Yog'ochni identifikatsiyalashni, uning tuzilishini, yog'och kimyosi, uning kimyoviy tarkibini kimyoviy reaksiyalar tamoyillarini, kimyoviy kinetikasini, organik birikmalarning tuzilishini, ularning sanoat texnologiyasida qo'llanilishini tushuntira oladi;
- A3** Yog'ochsozlik texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari va tushunchalarini tushuntira oladi, yog'ochsozlik texnologiyasida organik tizimlarni tushuna oladi, mebel va yog'och buyumlari ishlab chiqarish asoslarini biladi, mebel va yog'ochsozlik sanoatini barqaror rivojlanishi tushunchalarini tavsiflay oladi;
- A4** Yog'ochsozlik texnologiyasining asosiy nazariy jihatlari va tushunchalarini tavsiflay oladi va mebel va yog'och buyumlari (duradgorlik buyumlari, yog'ochli kompozitsion materiallar va mebel buyumlari) ishlab chiqarish malakasiga ega;
- A5** Yog'ochsozlik texnologiyasining boshqa fanlar (umumiy kimyo, fizika, organik kimyo, amaliy mexanika injeneriyasi, polimerlar kimyosi, informatika) bilan aloqasini tushuntira oladi;
- A6** Kengroq multidisipliner kontekstni tushuntira oladi va boshqa texnologiyalarning usullari va jarayonlarini qo'llay oladi; mebel va yog'ochsozlik sanoati jarayonlarini tushuntira oladi.

Texnologik tahlil

- B1** Mebel va yog'ochsozlik sanoat jarayonlarini tahlil qilish va baholash, eksperimental, analitik va raqamli usullarni qo'llash, mebel va yog'och buyumlari ishlab chiqarish texnologiyalarini (organik kimyoviy smolalar, kompozitsion materiallar, bioyoqilg'i) tushuntirish qobiliyatiga ega;
- B2** Mebel va yog'ochsozlik muhandisligi va buyumlar ishlab chiqarishdagi texnologik muammolarni aniqlash, shakllantirish va hal qila oladi, o'z bilim va tushunchalarini muhandislik va sanoat tahliliga qo'llay oladi, usullar va yog'ochsozlik texnologiyasi jihozlarni tanlash, tozalash, saralash va ishlab chiqarish bosqichlarini tushuna oladi;
- B3** Xavfsizlik talablari va texnologiyalarning inson salomatligiga ta'sirini hisobga olish, mebel va yog'ochsozlik texnologiyasida tegishli tahliliy va modellashtirish usullarini tanlash va qo'llash, texnologik parametrlar va jihozlarni tanlash, texnologik jarayonlarda modellashtirishni qo'llash qobiliyatlariga ega;

Texnologik dizayn

- C1** Belgilangan texnik, iqtisodiy va ekologik talablarga javob beradigan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda texnologik bilim va tushunchalarni qo'llay oladi, yog'ochsozlikka oid sanoat tahlilini amalga oshira oladi;
- C2** Texnologiyani loyihalash metodologiyasini tushuntira oladi, ularni yog'ochsozlik sanoatidagi jarayonlarni loyihalashda, jarayonlarni raqamlashtirishda muhandislik va texnologik uskunalarni tanlashda qo'llay oladi.

Tadqiqot

- D1** Ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot manbalarida biofan innovatsiyalari haqida kerakli kasbiy va ilmiy ma'lumotlarni, ilmiy metodologik usullarni topa oladi, mebel va yog'ochsozlik sanoati texnologiyasi va texnolog muhandisligi yutuqlarini aniqlay oladi, kompyuter dasturlaridagi ma'lumotlar bazalarini tushuntira oladi;
- D2** Yog'ochsozlik texnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ishlab chiqish uchun raqamli modellashtirish usullarini tahlil qilish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega;
- D3** Kerakli tajribalarni rejalashtirish va o'tkazish, ularning ma'lumotlarini baholash va xulosalar chiqarish; kimyo, mebel va yog'ochsozlik sanoati texnologiyasi va muhandislik sohasidagi aniq muammolarni aniqlash va hal qilish; tegishli analitik asboblarni tanlash, kimyo va mebel va yog'ochsozlik sanoati uskunalardan foydalanish qobiliyatiga ega.

Amaliy tadbirlar

- E1** Mebel va yog'ochsozlik sanoati texnologiyasi jarayonlarning laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalarni tanlash, qo'llash va boshqarish, bioprosess tahlilini amalga oshirish;
- E2** Muhandislik va yog'ochsozlik sanoati texnologiyasi muammolarni hal qilishda nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish, mebel va yog'ochsozlik buyumlari ishlab chiqarishda innovatsion avtomatlashtirilgan tizimlarni tanlash, yog'ochli kompozitsion mahsulotlarning texnologik liniyalarini loyihalash qobiliyatiga ega;
- E3** Texnologik faoliyatning axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik va tijorat holatlarini tavsiflay oladi, ijtimoiy ta'sir va ekologik muammolarni va tirik tizimlarning noyob muammolarini tushuntira oladi;
- E4** Yog'ochsozlikdagi texnologik faoliyatni tashkil etish tamoyillarini, mehnatni muhofaza qilishning ahamiyati va asosiy talablarini, shuningdek, texnologik jarayon va biznes muhitining o'zaro ta'sirini tushuntira oladi.

Texnologik mashina va jixozlar (mebel va yog'ochsozlik sanoati)



O'rganish natijalari

Shaxsiy ko'nikmalar

- F1** Mustaqil va jamoada samarali ishlash, jamoada va tipik va atipik vaziyatlarda ishlash qobiliyatiga ega;
- F2** Muhandislik va texnologiya jamiyati va keng jamoatchilik bilan ona tilida va chet tilida muloqot qila oladi va gumanitar, ijtimoiy, fan va texnologiya tushunchalarini tushuntirish qobiliyatiga ega;
- F3** Texnologik va muhandislik yechimlarining jamiyat va atrof-muhitga ta'sirini tushuntira oladi, kasbiy etika va texnologik muhandislik faoliyati normalariga rioya qiladi, yog'ochsozlikdagi texnologik faoliyat uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo'ladi;
- F4** Tadbirkorlik qobiliyatlari, turli sanoat korxonalarini boshqarish, rivojlanish xususiyatlarini tushuntira oladi;
- F5** Mustaqil, uzluksiz ta'lim bilan shug'ullanish, texnologik taraqqiyot bilan birga takomillashish qobiliyatiga ega.

